



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№9

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 285 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri	14
Abdulaziz Madjidov	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli	22
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Korxona raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
Xidirov Sherzod Olimovich	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari	34
Irgashev Anvar Farxodovich	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi	39
Umarov Bexzod Batirovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
Sheraliyev Axror Sodiqovich	
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlarini	48
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi	54
Abdullayeva Matluba Nematovna	
Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане	59
Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari	68
Abdug'aniyev Otabek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich	
Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari	75
Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish uslubiyoti: xususiyatlari, vazifalari va muammolari	89
Xaitov Shuxrat Sharipboyevich	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....	94
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna	
Transport tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sishining asosi sifatida	98
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini aniqlashda zamonaviy usullar va ularning samaradorligi.....	105
Marufhanov Davron Xasanovich	
Современные методы управления на железнодорожном транспорте в процессе трансформации системы.....	109
Кушакова Мамура Наримановна	
Финансовые механизмы и модели менеджмента в развитии устойчивой экономики транспортных компаний	115
Шарапова Гулчехра Рустамовна	
Kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning innovatsion yondashuvlari	120
Maxkamova Zuhra Tursunpulotovna	
Audit ishi sifati darajasini oshirish yo'nalishlari.....	124
Qushmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	131
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Ko'chmas mulk qiymatini baholash va uning ekonometrik tahlili	135
Jaloliddinova Mohira Alisher qizi	
Современные тенденции и вызовы бюджетно-макроэкономической политики в Узбекистане	142
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
Intellectual mulkda iqtisodiy mohiyat, mazmun hamda huquqiy jihat uyg'unligi	148
N.D.Maxmudova	
Axborot texnologiyalari asosida ta'limda loyiha boshqaruvida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish imkoniyatlari	152
Xodjiyeva Durdona Abdurasolovna	
Концепция "Зеленого учета" и его значение для экономического развития.....	157
Умарова Зулайхо Турсуновна	
Iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalariga kiritilgan investitsiyalarning joriy holati tahlili	166
Ismailova Kutlibeka Ulug'bek qizi	
O'zbekistonda yoshlar tashkiloti faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari va rivojlanish bosqichlari	172
Usmonov Adxamjon A'zamjonovich	
O'zbekiston Respublikasi maxsus iqtisodiy zonalarini investitsion holatini hududlar kesimida tahlili.....	178
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li	
Kichik biznes va o'rta biznesni rivojlantirish orqali aholi farovonligini ta'minlash.....	184
Ahmedov Oybek Turgunpulatovich, Nurqulov Nurbek Sirojiddin o'g'li	
Fiskal siyosat instrumentlari orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va legallashtirish metodologiyasi.....	189
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Fond bozorida savdo strategiyasi va uni amalga oshirishga yo'nalishlari.....	192
Soliev Istam Ixtiyorovich	
Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishning asosiy tamoyillari	197
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat boshqaruvi tizimining isloh qilinishi: Tajriba va istiqbollar.....	202
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti.....	209
Qosimova Lola Sultanovna	
Sanoat mahsulotlari eksportida logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlash: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar.....	217
Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi	
Soliq ma'murchiligiga zamonaviy texnologiyalarini joriy etish orqali qo'shilgan qiymat soliq ma'murchiligi bazasini kengaytirish yo'llari	222
Raxmonqulov Umidjon Rustam o'g'li	
Инновационные подходы к созданию проблемно-ориентированной системы прогнозирования, оптимизации и управления отраслями региональной экономики (жилищное строительство)	231
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Tovar-moddiy resurslar harakati samaradorligini oshirishda UZEX faoliyatining joriy holatini baholash.....	238
Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Mamatkulov Farrux Gulomjon o'gli	
Sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlik faoliyatining turlari	244
Solikhova Dildora Alisher qizi	



“O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” ajning asisii faoliyatini samaradorligini oshirishda autsorsing xizmatini joriy etish strategik asoslari	250
Kaxarova Nilufar Yerkijonovna	
Mintaqani kompleks rivojlantirishning metodologik asoslari va ustuvor yo‘nalishlari.....	256
Jumayeva Zulfiya Qayumovna	
Sog‘liqni saqlash tashkilotarida xarajatlar samaradorligini ta‘minlash masalalari	260
Raximova Maftuna Axmadjon qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida sof foydani taqsimlash bilan bog‘liq bo‘lgan soliq solish masalalari	264
Suyunov Otabek Shuxrat o‘g‘li	
Mahalla instituti asosida kambag‘allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlarining samaradorligi.....	269
Baratov J.N.	
O‘zbekiston qonunchiligida raqamli transformatsiya jarayonida elektron to‘lov kartalarini soxtalashtirishni jinoyatlashtirish.....	276
Maxsadaliyeva Maftuna Toxir qizi	
Mamlakatimizda intellektual xizmatlar bozorini rivojlantirish masalalari.....	281
Miyassarov Davron Abdurashid o‘g‘li	



MAMLAKATIMIZDA INTELLEKTUAL XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI



Miyassarov Davron Abdurashid o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti
"Inson resurslarini boshqarish" kafedrası tadqiqotchisi, tayanch doktorant
E-mail: davronmiyassarov93@gmail.com
ORCID 0009 – 0001 – 3681 – 3594

Annotatsiya: Ushbu maqolada intellektual xizmatlar bozorining nazariy asoslari, uning iqtisodiy mazmuni, shakllanish jarayonlari va rivojlanish xususiyatlari ochib berilgan. Intellektual xizmatlar bozorining jahon tajribasidagi o'rni, bu borada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, mavjud muammolar va ularning yechimlari atroflicha yoritilgan. Intellektual xizmatlarning iqtisodiyotdagi o'rni, innovatsion rivojlanishdagi ahamiyati va zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashuv jarayonlari ilmiy jihatdan asoslangan. Shu bilan birga, maqolada intellektual xizmatlar bozorini yanada rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: intellektual xizmatlar bozori, innovatsiyalar, bilimlar iqtisodiyoti, kreativ sanoat, intellektual mulk, konsalting, texnopark, startap, venchur kapitali, zamonaviy bozor xizmatlari.

Abstract: This article explores the theoretical foundations of the intellectual services market, its economic essence, formation processes, and development characteristics. It provides a detailed examination of the role of the intellectual services market in global experience, the reforms being implemented in this field in Uzbekistan, existing challenges, and their solutions. The significance of intellectual services in the economy, their importance in innovative development, and the processes of integration with modern technologies are scientifically substantiated. Additionally, the article presents proposals and recommendations for further development of the intellectual services market. Keywords: intellectual services market, innovation, knowledge economy, creative industries, intellectual property, consulting, technopark, startup, venture capital, modern market services.

Key words: market of intellectual services, innovation, knowledge economy, creative industries, intellectual property, consulting, technopark, startup, venture capital, modern market services.

Аннотация: В данной статье раскрываются теоретические основы рынка интеллектуальных услуг, его экономическое содержание, процессы формирования и особенности развития. Подробно освещены место рынка интеллектуальных услуг в мировом опыте, проводимые в Узбекистане реформы в этом направлении, существующие проблемы и пути их решения. С научной точки зрения обоснованы роль интеллектуальных услуг в экономике, их значение в инновационном развитии и процессы интеграции с современными технологиями. Вместе с тем, в статье разработаны предложения и рекомендации по дальнейшему развитию рынка интеллектуальных услуг.

Ключевые слова: рынок интеллектуальных услуг, инновации, экономика знаний, креативные индустрии, интеллектуальная собственность, консалтинг, технопark, стартап, венчурный капитал, современные рыночные услуги.



KIRISH

XXI asrda dunyo iqtisodiyotining rivojlanish sur'atlari tobora tezlashmoqda va bunda an'anaviy ishlab chiqarish omillari — mehnat, kapital va tabiiy resurslar bilan bir qatorda, intellektual salohiyat ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy iqtisodiyotda bilimlar va intellektual mulk asosiy boylik manbaiga aylanmoqda. Shu sababli ham bugungi kunda ko'plab mamlakatlar "bilim iqtisodiyoti" konsepsiyasi asosida rivojlanmoqda [1].

Intellektual xizmatlar bozori deganda, ilmiy-tadqiqot ishlari, konsalting, ta'lim, dizayn, injiniring, dasturiy ta'minot, marketing, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kabi bilim va malakaga asoslangan xizmatlar yig'indisi tushuniladi. U nafaqat iqtisodiy o'sishning qo'shimcha manbai, balki jamiyat taraqqiyotining intellektual asoslarini mustahkamlovchi muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ham intellektual xizmatlar bozorini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda. Innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy qilish, startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash, intellektual mulkni himoya qilish tizimini mustahkamlash borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Professor Wenwei Guanning XXR da intellektual mulk huquqi va amaliyotiga munosabati allaqachon faol bo'lgan ta'lim sohasini boyitadigan yangi istiqbollarni taklif etadi. Xitoyning intellektual mulkni himoya qilish tizimining kontseptual va operatsion jihatlarini va Xitoyning xalqaro hamkorlik jarayonini o'rganadigan akademik va siyosiy nutqlarga foydali hissa bo'ladi."

Pererva Petro "Formation of intellectual property commercialization strategies" nomli maqolasida sanoat ishlab chiqarish sohasida intellektual mulk obyektlarini iqtisodiy muomalaga kiritish muammolari tahlil qilgan.

Y.E.Aliyev "Innovatsion iqtisodiyot" nomli o'quv qo'llanmasida respublikada yaratilgan intellektual mulk ob'ektlarini tashkil qilishda fan va ishlab chiqarishning ikki tomonlama qiziqishlarini ta'minlash uchun zarur sharoitlarni yaratish kerak. Olimlarning patent bilan himoyalangan har bir ishlanmasi belgilangan respublika korxonasi, firmasi yoki fermer xo'jaligida tajribada amalga oshirish uchun kerakli monitoringdan o'tkazilishi kerak degan fikrni ilgari surgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda intellektual xizmatlar bozorining nazariy asoslari, jahon tajribasi va O'zbekiston sharoitida shakllanish jarayonlari o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasi doirasida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, induksiya va deduksiya tahlil asosida nazariy qarashlardan amaliy xulosalarga kelindi. Ushbu metodologik yondashuvlar natijasida intellektual xizmatlar bozorining rivojlanishi, iqtisodiyotga ta'siri, mavjud muammolar va istiqbollari bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Intellekt" so'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagi ma'nolarni angatadi [3]:

1. Kishining fikrlash qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi; zehn.
2. Shunday aql-idrok, zehn-farosat egasi.

"Intellekt" ([lotincha](#): intellects-bilish, tushunish, idrok qilish) [insonning](#) aqliy qobiliyati; hayotni, atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea-hodisalarni oldindan ko'ra bilish layoqati. Intellekt tarkibiga idrok qilish, [xotirlash](#), fikr yuritish, so'zlash va hokazo psixik jarayonlar kiradi. Intellektning rivojlanishi tug'ma iste'dod, [miya](#) imkoniyatlari, jo'shqin faoliyat, hayotiy tajriba kabi ijtimoiy omillarga bog'liq. Intellekt saviyasi, darajasi inson faoliyatining natijalariga, shuningdek, [psixologik testlarga qarab ham belgilanadi](#) [4].

Intellektual xizmatlar bozori iqtisodiyotning xizmatlar sektori tarkibidagi nisbatan yangi sohalardan biridir. U ilmiy-texnik taraqqiyotning natijalarini iqtisodiy muomalaga kiritish orqali vujudga keladi. Bunda asosiy tovar — bu moddiy mahsulot emas, balki bilim, axborot va intellektual faoliyat mahsuli hisoblanadi.

Iqtisodiy nazariyada intellektual xizmatlar bozorini shakllantirishda quyidagi omillar muhim o'rin tutadi:

- Innovatsion g'oyalar va ilmiy ishlanmalar — yangi bilimlarni yaratish va ularni iqtisodiyotga tatbiq qilish;
- Intellektual mulk — patent, litsenziya, mualliflik huquqi kabi ob'ektlar;
- Inson kapitali — yuqori malakali kadrlar, ularning bilim va ko'nikmalari;
- Institutsional muhit — huquqiy asoslar, davlat siyosati va bozor infratuzilmasi.

Demak, intellektual xizmatlar bozori — bu bilim va innovatsiyalar asosida yaratilgan xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonidir.



Rivojlangan mamlakatlarda intellektual xizmatlar bozori yalpi ichki mahsulotning 40–50 foizini tashkil etmoqda [1]. Masalan, AQShda konsalting xizmatlari, dasturiy ta'minot ishlab chiqish va patent savdosi iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Yaponiyada esa intellektual mulk huquqlarini himoya qilish yuqori darajada yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu innovatsion faoliyatning uzluksiz rivojlanishini ta'minlamoqda. Janubiy Koreyada texnoparklar, biznes-inkubatorlar va ilmiy markazlar orqali startap loyihalar keng ko'lamda qo'llab-quvvatlanadi. Natijada mamlakat qisqa vaqt ichida yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportchilari qatoridan o'rin oldi. Yevropa Ittifoqida esa "raqamli bozor" konsepsiyasi asosida intellektual xizmatlar yagona iqtisodiy makonda erkin harakat qilmoqda.

O'zbekistonda 2017-yildan boshlab innovatsion rivojlanish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi [2]. Shu maqsadda Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi, texnoparklar, IT-parklar va startap inkubatorlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Shuningdek, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish bo'yicha qonunchilik bazasi takomillashtirildi. Biroq, hozirgi kunda intellektual xizmatlar bozorining rivojlanishida bir qator muammolar mavjud:

- ilmiy tadqiqotlarning ishlab chiqarish bilan integratsiyasi sust ekanligi;
- startaplarni moliyalashtirish mexanizmlari yetarli emasligi;
- kadrlar malakasini oshirish tizimi zamon talablari darajasida emasligi;
- intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish bozor mexanizmlari yetarlicha shakllanmagan.

O'zbekistonda intellektual xizmatlar bozorini rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlar dolzarb hisoblanadi:

1. Huquqiy asoslarni kuchaytirish – intellektual mulk huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini mustahkamlash, xalqaro standartlarga moslashtirish.
2. Innovatsion infratuzilmani kengaytirish – texnoparklar, inkubatorlar va transfer markazlari sonini ko'paytirish.
3. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash – venchur kapital, xususiy investitsiyalar va xalqaro grantlarni jalb qilish.
4. Kadrlar salohiyatini oshirish – zamonaviy ta'lim dasturlari, ilmiy-amaliy loyihalarda ishtirok etish orqali mutaxassislar tayyorlash.
5. Raqamli transformatsiya – elektron platformalar orqali intellektual xizmatlarni xalqaro bozorlarga olib chiqish [1].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, intellektual xizmatlar bozori rivojlangan sari iqtisodiyotning raqobatbardoshligi ham oshadi. Innovatsiyalar ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltiradi, yangi mahsulot va xizmatlarning yaratilishiga zamin hozirlaydi, eksport salohiyatini kengaytiradi.

O'zbekiston uchun intellektual xizmatlar bozorini rivojlantirishning eng muhim natijalaridan biri bu — yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishdir. Bu esa mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi va barqaror o'sishini ta'minlaydi. Shuningdek, intellektual xizmatlarning rivojlanishi jamiyatning ta'lim tizimiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan yosh mutaxassislar xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar sifatida maydonga chiqadi [2].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, intellektual xizmatlar bozori bugungi kunda nafaqat iqtisodiy o'sishning yangi manbai, balki mamlakatning intellektual salohiyatini namoyon qiluvchi eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida ushbu bozorni rivojlantirish uchun huquqiy, institutsional va moliyaviy islohotlarni chuqurlashtirish, davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish talab etiladi.

Kelajakda intellektual xizmatlar bozorining rivojlanishi mamlakatni bilim iqtisodiyotiga o'tishini jadallashtiradi, yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytiradi hamda O'zbekistonning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshiradi [1].

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Intellektual mulk himoyasini kuchaytirish – O'zbekistonda intellektual xizmatlar bozorini rivojlantirish uchun xalqaro standartlarga mos ravishda patent, litsenziya va mualliflik huquqlarini himoya qiluvchi zamonaviy huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilishi zarur.
2. Innovatsion infratuzilmani kengaytirish – yangi texnoparklar, ilmiy-tadqiqot markazlari, startap inkubatorlari va transfer markazlarini tashkil etish orqali ilmiy ishlanmalarni tezroq tijoratlashtirishni ta'minlash lozim.
3. Venchur kapitalni rivojlantirish – innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun venchur fondlari, grantlar va xalqaro investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish talab qilinadi.
4. Kadrlar salohiyatini oshirish – oliy ta'lim muassasalarida intellektual xizmatlarga oid maxsus ta'lim dasturlari ishlab chiqish, xalqaro tajribaga ega mutaxassislarni jalb etish va doimiy malaka oshirish tizimini yo'lga qo'yish muhim.
5. Raqamli platformalarni yaratish – intellektual xizmatlar va ilmiy ishlanmalarni onlayn bozorlarda taklif etish, xalqaro hamkorlar bilan tezkor aloqalarni yo'lga qo'yish uchun maxsus elektron platformalarni ishlab chiqish.



6. Davlat – xususiy sheriklikni rivojlantirish – intellektual xizmatlar bozorida davlat organlari va xususiy sektor o'rtasida hamkorlik mexanizmlarini mustahkamlash, ilmiy natijalarni ishlab chiqarishga tatbiq etish uchun qo'shma loyihalar amalga oshirish.

7. Eksport salohiyatini kengaytirish – dasturiy mahsulotlar, konsalting va boshqa intellektual xizmatlarni xalqaro bozorlarga olib chiqish orqali O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatida yangi yo'nalishlar yaratish va boshqalar.

Intellektual xizmatlar bozori bugungi kunda nafaqat xizmatlar sektorining tarkibiy qismi, balki butun iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, bilim va intellektual resurslardan samarali foydalanayotgan mamlakatlar raqobatbardoshlik darajasi bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallab bormoqda. O'zbekistonda esa mazkur bozor hali shakllanish bosqichida bo'lsa-da, ta'lim, IT, ilmiy-tadqiqot ishlari va konsalting xizmatlari asosida rivojlanib bormoqda.

Demak, intellektual xizmatlar bozorini samarali rivojlantirish uchun birinchidan, intellektual mulk huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish, ikkinchidan, innovatsion infratuzilmani kengaytirish, uchinchidan, startap va innovatsion loyihalar uchun moliyaviy manbalarni jalb qilish, to'rtinchidan, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va xalqaro tajriba almashinuvini yo'lga qo'yish zarur. Shu bilan birga, intellektual xizmatlarni raqamli platformalar orqali jahon bozoriga olib chiqish mamlakatning eksport salohiyatini oshiradi.

Natijada, intellektual xizmatlar bozorining rivojlanishi O'zbekistonning bilim iqtisodiyotiga o'tishini jadallashtiradi, iqtisodiyotning barcha sohalarida samaradorlikni oshiradi va mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. OECD. The knowledge economy. Paris, 50-55 pages, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.07.2022 yildagi PF-165-son, <https://lex.uz/docs/-6102462>.
3. <https://izoh.uz/word/intellekt>.
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Intellekt>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
